

AN'ANAVIY O'ZBEK TO'QIMACHILIGINING XUSUSIYATI VA O'ZARO RAQOBATBARDOSHLIGI

MAHLIYO ALISHER QIZI XOLIQOVA

Tayanch doktorant

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: xmahliyo@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I5-2>

Annotatsiya: *To'qimachilik rivojlanishi, Marg'ilon va Buxorodagi mato yaratuvchi hunarmandlarning o'zaro raqobatbardosh mahsulot yaratishlari, harir va havodek yengil ro'mol sharflarning urfga aylanishi, biz bilgan atlas matosining tayyorlanish jarayonlari, mato dastgohining turlari va ularning bir-birida o'zaro farqlanishining sabablari. XIX asrning oxiriga kelib hunarmandlarning ishi qisqaruvi. Atlas bayraminig oltinchi mavsumi.*

Kalit so'zlar: *To'qimachilik, anilin bo'yoqlari, adras, atlas, baxmal, shoyi, banoras, ikki, to'rt va sakkiz tepkili dastgohlar, kashtachilik, so'zana, motiv, WOSCU*

KIRISH

O'zbek milliy matolari deganda, avvalambor, ko'z oldimizga Farg'ona vodiysidagi Marg'ilon shahri ko'z oldimizga kelishi aniq. Sabbabi Marg'ilon XVIII - XIX asrning II-yarmidan to'qimachilik an'analari eng mashhur markazi bo'lib kelgan. U tarixiy, iqtisodiy va boshqa omillar tufayli "Ipak markazi" ahamiyatiga muayassar bo'ldi.

ASOSIY QISM

Marg'ilon matolari sirasida xom-ashyosi bezagi va to'qish texnikasi bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi o'nlab mahsulot turlari mavjud. Bularga: beqasam, adras, pariposhsha, banoras, xarir, shoyi, kanovuz, yakro'ya, atlas, xonatlas, chit, olacha, qalami, bo'z va boshqa turdagi matolar faqat mintaqalarimizda emas, balki undan tashqarida ham mashhur bo'lgan. Shuningdek tuya juni, echki tiviti kalavasidan jun gazlama va ip aralash shoyi tayyorlangan. Yuqoridan aytib o'tilgan matolar ichida eng mashhurlari abrli matolar - atlas va xonatlasdir. Ularning o'ziga xos xususiyati shundaki, bezak va gullar to'qilgan matoga emas, aksincha bo'yoqchilik dastgohga qo'yilgan, mato uchun tayyorlangan o'rish iplariga tutamlarni bog'lash orqali tushiriladi.

Xolbuki matolarning yaratilishi kecha yo bugundan boshlangan emas, azaldan bo'lgani isboti sifatida XI - asrda yashab ijod qilgan faylasuf Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" (Saodatga eltuvchi bilim) asaridan ko'rishimiz mumkin:

Olamga baxsh etib tengsiz chiroyni,
Yaratdi bir yo'la oftobu oyni.
Falakni yaratdi o'n sakkiz ming tarx,
Falakka basma-bas ham aylanar charx.
Yashil ko'k yaratdi yulduzi bilan,
Qora tunni yorug' kunduzi bilan.

Ko'z ko'rganda quv naydigan, rang-barang matoning sermashaqqat mehnatini bilgan inson, nima uchun tannarxi baland bo'lishini fahmlay boshlaydi. Eni 35 sm dan 55 sm gacha bo'ladigan qo'lda tayyorlanadigan o'sha biz biladigan mashhur adras shoyi matosi, asosan mehnatini erkaklar qilishgan. Ayollar vazifasi tayyor qozonda qaynatilgan oppoq ipak kalavalarni yoyish va g'altaklarga o'rash bilan tugatilgan. Qolgan ishni erkaklarning o'zi katta yog'och charx yordamida kalava ikki metrgacha keladigan o'rmakka taramlab, ularni tutamlab bo'yash uchun libitlarga taqsimlab o'rab, qozon (har bitta rangni alohida, katta qozonlarda tayyorlab, suv bilan aralashma holatiga keltirilgan qaynatib, ivitilgan, eritma) ga solib, tolaga rang beriladi. So'ng usta-abrbandchilar eskizlarga asoslanib, ipak tandaning bo'yaladigan hamda naqsh va ranglar uyg'unligidan kelib chiqib bo'yash shart bo'lmagan qismlarni tutamlab bog'lab olishadi. Rang berilgach, tanda abrband kompozitsiya-siga binoan tegishli tartibda taqsimlanadi. So'ngra tayyor ipak tanda to'qish dastgohi tortiladi. Ipak tanda va dastgoh tuzilishiga ko'ra ikki tepkili, to'rt tepkili va sakkiz tepkili bo'ladi. Bu orqali biz matoning shoyi yoki nimshoyi ekani aniqlanadi. Matoning yakuniy ishi tuxum oqi bilan ohorlash - kudunglash orqali ish nihoyasiga yetadi.

Ikki tepkili dastgoh - ipak iplar teng ikkiga bo'linib, o'rtasidan arqoq ip o'tadi. Bunday matodan yuza va astar degan so'z bo'lmay ikki taraf lama bir xil, Ikki tepkida nimshoyi mato - adras to'qiladi. To'rt tepkili dastgoh - bir tepki pastga tushirilib, uch tasi yuzada qoldiriladi. Ipak iplarining asosiy qismi tepaga ko'tarilib, bittasi arqoq bilan pastga yo'naltiriladi. Sakkiz tepkili dastgoh - ipak iplar soni ko'proq. Odatda faqat ipak ishlatilgani sabab, shoyi deb ataladi. Sakkiz tepkida yettitasi tepada, bittasi pastda bo'lib, ularning bir-biridan farqi shunda.


XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining salmoqli qismini hunarmandlar tashkil etib, ular ipak, yarim ipak gazlamalari, zargarlik buyumlari va zardo'zlik mahsulotlari mashhur bo'lgan. Ishning yuqori sifati ustaning tor ixtisoslashuvi va joylashtirish texnikasining rivojlanishi bilan ta'minlandi. Buxoro to'qimachilari bilan faqat Marg'ilon to'qimachilarigina raqobatlasha olgan. Minglab ustaxonalarda silliq, yo'l-yo'l va abrli matolar, murakkab va sodda to'qilish: atlas, baxmal, shohi, adras, olacha, banoras va boshqalar ishlab chiqarilgan. Ko'proq dekorativ bezakli, o'ziga xoslik bilan abrli atlas, shohi va baxmal, quvnoq ohanglari va yorqinligi bilan hind baxmalidan o'tib

ketgan. Noyob to'qilgan paxta ipakdan yupqa, harir tikilgan va qalg'ay vaznsiz, havodor Buxoro ro'mollari o'zining badiiy fazilatlarini bilan yuksak baholangan. Fabrikadan keltirilgan sitet matosi, mahalliy hunarmandlar nonni yarim qildi. Oqibatda hunarmandlar o'z ishlarini to'xtatib zavod, fabrikalarga ishga o'tib ketishdi.

To'qimachilik dizayn san'atining yangi uslubiy xususiyatlari abri mahsulotlarining tasvir tuzilishida yaqqol namoyon bo'ldi. Ular yanada ixcham va monumental ko'rinishga chiqdi. Kompozitsiyalar va motivlar naqshlar bilan soddalashtirildi, ularning masshtablari oshib, ritm tinchlanadi. To'qimachilikda amaliy san'atning boshqa turlarida bo'lgani kabi ornamentda ham, asrlar davomida to'plangan, haqiqiy olam shakllari asosida rassomlarning ijodiy tasavvurida yaratilgan tasvirlar saqlanib qoladi. Bularga: doiralari - "quyosh", romb, daraxt, buta, anor mevalari, chayon, ajdar misol qilish mumkin. Qadim zamonlardan himoya timsoli xususiyatiga ega bo'lgan ularning ko'pchiligiga keyingi asrlarda shunday shartli bezakli munosabatda bo'lganki, ular ko'pincha prototip bilan aloqasini butunlay yo'qotib, qayta talqin qilingan. Masalan, "tovoq naqshi"ga aylangan "quyosh", "zuluk"ga aylangan "ajdarho"ga va boshqalarga yetib bordi. Ayni paytda yangilangan bezak ishlari ham davom etardi.



1970-1980 yillarga kelib, anilin bo'yoqlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, bu rangning yorqinligini oshirdi. Polixrom ranglar, ikki va uch rangli matolar keng qo'llanila boshladi. Hammasi ko'zni qamashtiruvchi rang kombinatsiyalarni yaratishga olib keldi. Rus matolarining ta'siri ostida, abr dizaynlarining juda nozik rangli gammasi paydo bo'ladi, Masalan, oq fonda ko'k "daraxt" motivi. Ustalar yuksak madaniyat va rang-baranglikni ajoyib rang kaloritini saqlab qolishadi.



XIX asr o'rtalarida Buxoro kashtachiligi Markaziy Osiyodagi eng go'zallaridan biri hisoblangan. Ayollar turli maqsadlar va o'lchamdagi rangli ipaklardan so'zana tikishadi. Buxoro so'zanasi 50-80 yillarda boshqa qadimiy madaniyat markazlari kashtalari bilan umumiy xususiyatlarni saqlab, yorqin o'ziga hoslikni kasb etadi. So'zana sahovatli gullab - yashnayotgan yam-yashil bog'ning timsoli bo'lib, ular tabiatni jonlantirish kuchi, hayotning go'zalligini maqtagandek ko'rinadi. Kashtalar turli xil kompozitsion yechimlar: markazlashtirilgan, simmetrik, panjara, doim muvozanatli, aralash, qat'iy simmetriyasiz va ko'p qirrali idrok bilan ajralib turgan. Motivlar: asosan o'simlik dunyosining ko'plab tasvirlari hukmronlik qilgan, shakl va rangning ritmik rivojlanishi bilan tekis, siluetli tarzda talqin qilingan. Moslashuvchan va plastik tambur tikuvi shakllarning yumaloqligi, chiziqlar va ritmning silliqligini ta'minladi. Choklarning turlicha joylashuvi, rangning to'g'ri tanlovi, mutanosiblik pushti-yashil kombinatsiyasi ko'zga yoqadigan quvonchli rangni yaratdi.

XULOSA

Bugungi kunga kelib an'analar qayta tiklanib yanada takomillashtirilmoqda. Hunarmandlar o'z bilim malakalarni oshirish maqsadida boshqa usta hunarmandlardan fikr almashib, o'zaro hamdo'stlik qilishmoqda. Kuni kecha Marg'ilonda bo'lib o'tgan, to'qimachilikka bag'ishlangan "Atlas bayrami" olti yildan buyon an'anaga aylanib nishonlanib kelmoqda. Unda O'zbekistonning har qaysi viloyat tumanlaridan ishtirokchi-hunarmandlar kelib, o'zlari yaratgan mahsulotlarni namoyish etib, butun bir xalq uchun to'y-tomoshga, bazmdak, hursandchilik kayfiyati bag'ishlab, insonlarning esda qoladigan; Marg'ilondagi mashhur "Yodgorlik" fabrikasidan maxsus mato tayyorlash bo'yicha master klass, taniqli modelyer-dizaynerlar

tomonidan turli libos kolleksiyalarning namoyishi, qovun, anor, uzum sayli, milliy o'yinlarda bo'lmish kurash, yoshlar uchun qo'g'irchoq teatri, foto ko'rgazma omma uchun, taqdim etildi. Nafaqat birgina hududda balki Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa viloyatlarda ham atlas bayrami nomi bilan mintaqa bo'ylab, yig'ilish va bazmlar bo'lib o'tmoqda. Imkoniyatlarning chegarasi yo'q, inson o'z xohishi bilan qilaman desa, bir ishni boshlagan serg'ayrat, sershijoat kishi, baribir uni yakunlamay qolmaydi. Shunday ekan hunarmandlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar natijasida amaliy san'at yuqori pog'onalariga ko'tarilib, o'z mevasini bermoqda. Chet mamlakatlardagi ko'rgazma namoishlarga chiqishmoqda nafaqat o'zimizda hatto butun dunyoga bizning madaniy merosimiz bo'lmish amaliy san'at namunalari keng targ'ib qilinmoqda.

O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha butunjahon jamiyati (WOSCU) tomonidan to'plangan ma'lumotlar va izlanishlar natijasida katta jildlik O'zbekiston amaliy

san'atiga tegishli bo'lgan mahsulotlarni turli mamlakatlardan topilgan namunalari bir yerda jamlanib katta bilim manbai sifatida kitob nashrdan chiqarilgan. Zero, buyuk tarixdan hechnarsa izziz ketmaganidek, xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Tarixiy merosni asrab avaylash, o'rganish va kelgusi avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Margilon 2000. Fan va turmush jurnal. 5-6/2007
2. Avlodlarni bog'lovchi rishta. B.Nodir. Toshkent. 2017y.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi
4. История Бухары. Ташкент 1976.